

MA’SUMA ROMANI HAQIDA

Jo‘raqulov Sardor O‘ktam o‘g‘li

ToshDO‘TAU ona tili va adabiyoti

fakulteti

401-guruh

talabasi

E-mail: sardorjurakulif@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Isajon Sultonning “Ma’suma” romani tahlilga tortiladi. XX asrdagi siyosiy harakatlar, o‘zbek teatirining shakllanishi va maqsadi, o‘sha davr yozuvchilarning pozitsiyasi Isajon Sulton bergan talqinda o‘rganiladi. Shuningdek Ma’suma romani qiyosiy tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: Teatr, drama, jadidchilik harakati, qo‘rboshilik harakati, qatog‘on siyosati, milliy qadriyatlar.

Annotation: In this article, Isajon Sultan's novel "Ma'suma" is analyzed. The political movements of the 20th century, the formation and purpose of the Uzbek theater, the position of the writers of that time are studied in the interpretation given by Isajon Sultan. Also, the novel Ma'suma is studied comparatively.

Key words: Theater, drama, revolutionary movement, martial movement, repression policy, national values.

Kirish. Mustaqillik davri o‘zbek romanchiligi haqida so‘z borganda 30 yildan ko‘proq davr mobaynida yozuvchilarimizning mehnati evaziga bir qancha ijtimoiy-siyosiy, tarixiy mavzudagi romanlar dunyo yuzini ko‘rdi. Misol uchun Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romani yoki U.Hamdamning “Muvozanat” romanlarini keltirishimiz mumkin. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti haqida olim Umarali Normatov quydagicha fikr bildirgan “Istiqlol kunlariga kelib, chin ijodkorlar ko‘nglida el-yurt uchun nimaiki dard bo‘lsa barini to‘kib solish imkoni paydo bo‘ldi” [1]. Isajon Sultonning Ma’suma [2] romani ham xalqimizning boshida o‘tgan eng og‘ir kunlari bo‘lmish sovet bosqini davri hamda qatog‘on siyosati haqida yozilgan. Biz tubanda Ma’suma romani orqali o‘zbek teatirining shakllanish tarixi, jadidchilik harakati va uning guruhlariga bo‘linishi, sovet mafkurasi ta’sirida nomi kamdan kam tilga olingan yoki umuman eslanmagan ziyolilar, XX asr 40 yillaridagi yozuvchilarning pozitsiyasi hamda “bosmachilar” haqida berilgan tarixiy haqiqatlarning badiiy tarzda berilganini tahlilga tortamiz.

Asosiy qism. Ma’suma romanida XX asrning eng ziyoli oilalaridan biri bo‘lgan Abduvohid Qoriyevning oilasi va uning ayanchli taqdiri haqida so‘z borgan. Yozuvchi o‘zigacha bo‘lgan salafaridan hususan Abdulla Qodiriydan ta’sirlangani ushbu romanida yaqqol sezilgan. Adabiyotshunos Bahodir Karimov “Daloyil o‘qiyotgan Yusufbek hoji” maqolasida [3] “Abdulla Qodiriy Yusufbek hojini aynan hojiligini yuksak maqomga ko‘tarib qo‘ygandir. Bu nur yuzli siymo talatidan taralgan nur yog‘du butun roman borlig‘iga oydinlik bag‘ishlaydi” deb asardagi e’tiqodiy masalaga alohida to‘xtaladi. O‘tkan kunlar romani o‘qirmanlar qo‘lidan

tushmasligining asosiy sabablaridan biri ham diniy e’tiqod asosiy tasvir vositasi ekanidir. Huddi shunday Isajon Sulton ham Abduvohid Qoriyev uning oila a’zolarini ham e’tiqodda mustahkam, diniy barkamol, iymonli va halol tasvirlaydi. “Islom dini uning falsafasi, diniy e’tiqod qadriyatlari haqida tasavvurimizni kengaytirmog‘imiz lozim. Bularning bari kishilarning eng insoniy qudrati bo‘lmish iymonga kelib taqaladi, eng ezgu fazilatlar iymonli qalblar maydonida ko‘karadi”[4] Abduvohid Qoriyevni tasvirlashda yozuvchi beixtiyor Yusufbek hoji obrazidan tasirlanganini ko‘rishimiz mumkin. Bu ikki asarni mushtarak jihatlaridan yana biri oiladadi milliy qadriyatlarni eng yuksak darajada va yuqori did bilan tasvirlaganidir.

“Hoji Kumushning boshiga kelib o‘tirdi

-Oyim....Oyim.....-dedi hoji. Kumush ko‘zini ochib besaranjomunga nazar soldiva tanib qo‘zg‘almoqchi bo‘ldi.[5.O‘tkan kunlar romani 375-bet]

“Abduvohid qori xabar olgani kirganda Katta oyi bezotalandi, xolsiz qo‘llari ro‘molini izladi, oqargan sochlarini tuzatib, o‘rnidan qo‘zg‘almoqchi bo‘ldi [o‘sha asar 87-bet]. Har ikkila o‘rinda ham o‘zbek ayollariga hos iffat, hayo, hurmat yuksak did bilan tasvirlangan.

Abduvohid qori mashxur ulamo jadidchilik davrining “qadimchi”laridan bo‘lsada o‘g‘illari Bositxon Qoriyev va Boisxon Qoriyevlar “yangilikchi” ziyolilar edi. Bu oilaning yaqin do‘stlari ham XX asr siyosiy muhitida o‘z o‘rniga ega shaxslar edi. Yozuvchi ularni 3 ta yirik guruhga bo‘lgan holda asarga kiritgan.

“Qarang-a, Turkiston ziyolilarining uch avlodi bizning sulolada jamuljam! Munavvar qori, Avloniy, ustozim Fitrat, Tavallo, Ziyo afandi....Bular padarmiz tevaragidagi mo‘tabar kishilar. Xamzaxon, Julqunboy, Cho‘lpon, So‘fizodalar akamning ulfatlari. Menikilar esa “Qizil Qalam” to‘garagining g‘ayrati ichiga sig‘may turgan yoshlari. Olov bo‘lib yonuvchi Botu, soda bayov Mirtemir yana Oybek, Uyg‘un, Xamid, Oydin Eminjon deganlari ham bor [o‘sha asar 68-bet]. Jadidchilik harakati a’zolarining taqdiri tarix sahifamizning eng qayg‘ulisidir. Biz yuqorida “jadid” va “qadimchi” deb ajratishimizga Abdulla Avloniy quyidagicha fikr bildiradi o‘z tarjimai holida; *“Shul zamonda yerli xalqimiz o‘rtasida eskilik va yangilik (jadid-qadim) janjali boshlandi. Gazet o‘quvchilarni mullalar “jadidchi”nomi bilan atar edilar. Men hamshul jadidchilik qatoriga kirdim”* [6.Matn/A.Avloniy/Nashrga tayyorlovchi Begali Qosimov, Oltinbek olimbek.-Toshkent:Zabarjad Media, 2022-432bet].

“Yangichi” Akmal Ikromovning rus ayoliga uylanishi va Abduvohid Qoriyev bilan orasiga sovuqchilik tushganini ham ko‘rishimiz mumkin. Jadidlar orasida rus ayoliga uylanish qaysidir manoda urfga aylangan edi. Buni Xamza Hakimzoda Niyoziyning hayotiga bag‘ishlangan Nabijon Boqiyning “Qizil toshbo‘ron”[7] nomli hujjatli romanida ham ko‘rishimiz mumkin. Nega aynan jadidlar orasida rus

(g‘ayrimillat) ayollarga uylanish urfga aylanadi. Buning javobini Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” [8]romanidan qarab ko‘ramiz.

“Sizning musulmon xotiningiz bormi?

-Bor...yo ‘q, yanglishdim bore di...

-Har holda musulmon xotin bilan turib ko‘rgansiz

-Ha ...albatta

-Endi mana tarbiyaning nimaligini o‘z tajribangiz bilan bilasiz. Tarbiyasiz, ongsiz va nodon musulmon xotin bilan tarbiyalik madaniy ovro‘palikni solishtirib ko‘rasiz.

“jadid” yana Maryam masalasiga to‘xtaldi. Ko‘p gapirdi.

-Yurtingizda qolgan bolalaringizni shu ayolga topshiring! Odam bo‘ladi ular.

Millat onalarini yetkazish uchun g‘ayrimillat onalaridan o‘rnak olaylik dedi. Hali Maryamning o‘rnak bo‘lishi bor Yo‘q uni tashlab ketib bo‘lmas”. Jadidlar bolalarining ilmi bo‘lishiga onalar rolini ko‘pligiga ishonishgan.

Asar qiymatini oshiruvchi jihatlaridan biri bu albatta yozuvchining milliy istiqilolchilik harakati a‘zolariga to‘xtalganidir. Sovet bosqiniga qarshi kurashgan tarixda qo‘rboshilik harakati deb nom olgan, bosqinchilar tomonidan esa “bosmachi” deb atalgan yurt ozodligi uchun jon bergan yovqur bobolarimiz; Shermuhammadbek, Madaminbek, Xolxoja eshon, Ibrohimbek laqay hamda tarixiy asarlarda deyarli uchramaydigan ayol qo‘rboshilar Nodira qiz, Shakarxon kabi zulmga qarshi kurashgan tarixiy shaxslar kiritilishi o‘zbek adabiyotida kamdan kam uchraydigan holat desa ham bo‘ladi. Sovet mafkurasi ta‘sirida yozilgan Shuxratning “Otin zanglamas” romanida Dilovar obrazi orqali ko‘plab o‘qirmanlarda “bosmachilar”ga nisbatan salbiy fikr paydo bo‘lgan. Mustaqillik yillarida Tog‘ay Murodning Aqrab qo‘rboshi obrazi orqali ancha yaqinlashgan harakat a‘zolari haqida keyinda davrlarda ham bir qancha asarlar yaratildi. Ma’suma romanida ham “bosmachi” degan tamg‘aga qarshi oqlash bor.

Asardagi asosiy voqealar o‘zbek teatirining paydo bo‘lishi rivojlanishi haqidadir. O‘zbek teatirining asoschisi Abror Hidoyatov va shu taetrga umrini baxshida etgan Yetim Bobojov, Aziz Sobirov kabi aktyorlar tilga olinadi. Masuma Qoriyeva ilk marotaba G‘.Zafariyning “Xalima” spektaklida rol ijro etgan. Rol o‘ynayotgan aktyorlar bevosita omma bilan gapalshib rol ijro etgan. Maqsad xalqni fikrini bilish, xulosa chiqarish qaysidir manoda “oyna” qilib ko‘rsatish bo‘lgan. Sovet tuzumining qatog‘on siyosati tufayli bir qancha ziyolilarmiz qamaldi. Bu siyosat Qoriyevlar xonadonini ham chetlab o‘tmadi. Oila a‘zolari ” xalq dushmani” deb e‘lon qilingandan keyin Ma’suma Qoriyevaning teatrdagi faoliyatida ham bir qancha to‘siqlar paydo bo‘ladi. Aktirisalikdan xo‘jalik ishlariga tushiriladi. Bu siyosat tufayli teatrdagi qo‘yiladigan bir qancha asarlar olib tashlanadi ba‘zilarining nomi o‘zgartiriladi. Ana shu tahlikali davrda yozuvchilar qaysi pozitsiyada

ekanligiga ham ishora berilgan. *“Komil Yashin “boy ila batrak”ning nomini “Boy ila hizmatchi” deb o‘zgartirib qaytadan yozdi. [o‘sha asar 167-bet] Cho‘lpon tarjimasini hisoblangan “Xamlet” ga kelganda esa M.Ismoiliy boshqacha yo‘l tutgan. “Mirzokolon Ismoiliy Cho‘lpondan ortirib tarjima qilishning imkoni yo‘q, men Qalam ham tekkizganim yo‘q. Cho‘lponga Qalam tekkizib bo‘larkanmi”[o‘sha asar 167-bet]*

Ma’suma Qoriyevaning eri ham qaynotasi ham o‘ldirildi qaynog‘asi esa surgunda bo‘ladi. Ikkinchi jahon urishi davrida kimda kim o‘z ixtiyori bilan frontga ketga oqlash va’da qilinadi. Ma’suma Qoriyevaning ikki o‘g‘li ham frontga otlanadi. Afsuski ulardan faqat “qizil yulduz” va “Qizil bayroq ordenlari keladi holos. Ma’suma Qoriyeva esa iztirobga to‘lib **“Mana bolalarim Nomimiz ham oqlandi,”**- deydi

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak; I.Sulton Ma’suma romanida oiladagi qadriyatlarni tasvirlashda sahifalaridan A.Qodiriyning O‘tkan kunlar romanidan ta’sirlanganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek mustaqillik yillarida millat oydinlari haqida yozilgan asarlardan ustun jihati oydinlarning auditoriyasi judayam keng va avlodlarga bo‘lingan holda berilgan. Masuma romanida milliy istiqloqlilik harakati a’zolari haqida ayniqsa ayol qo‘rboshilar haqida to‘xtalgani sovet davrida “bosmachi” deb atalgan ajdodlarimizni oqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Romanda nafaqat teatrning shakllanish, qatog‘on siyosati bir oilaning ayanchli taqdiri o‘laroq yaqinlaridan jigarbandlaridan ayrilgan onaning iztirobi ham yorqin aks etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/bahodir-karim-daloyil-o-qiyotgan-yusufbek-hoji>. Yana qarang: Баходир Карим. “Абдулла Қодирий феномени. Т.: Info Capital Group, 2019. 480 b.
2. “Kecha va Kunduz”Nashriyot. “Sharq” : 2018.384 bet
3. “O‘tkan kunlar” Nashriyot. “Sharq” : 2018.304 bet
4. Кизил тошбурон: хужжатли роман / Н. Бокий.-Тошкент. Янги аср авлоди. 2022-544 б.
5. Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Имон. “Камалак”. Т.: 1992. – 160 б.
6. Масъума [Матн]: Роман ва хикоялар / Исажон Султон: <<Адабиёт>>нашрийоти,2002. 248 б.
7. Норматов У. “Нафосат гурунглари” Т. : “Муҳаррир”. 2010. - 220 б.